

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI,
O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI MAKTABGACHA VA MAKTAB
TA’LIMI VAZIRLIGI**

**AJINIYOZ NOMIDAGI NUKUS DAVLAT PEDAGOGIKA
INSTITUTI**



«TASDIQLAYMAN»

**Ilmiy ishlar va innovatsiyalar
bo'yicha prorektor**

K.Seitnazarov

» 2025 y.

**13.00.02. Ta'lim va ta'rbiya nazariyasi va metodikasi (Tasviriy san'at)
mutaxassisligi fanidan imtixon uchun**

FAN DASTURI

NUKUS-2025

TUZUVCHILAR:

G.Mambetkadirov - NDPI “Tasviriy sanat va muxandislik grafikasi ” kafedrası docenti, s.f.f.d (PhD).

J.Darmenov - NDPI “Tasviriy sanat va muxandislik grafikasi” kafedrası professori v.b. p.i.k.

TAQRIZCHI:

X.Alyaminov - QMU “Arxitektura” kafedrası docenti p.f.d.

Fan dasturi Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika institutining “Tasviriy san’at va muhandislik grafikasi” kafedrasida 2024-yil “2” maydagi № 9 - sonli o’quv-metodik majlisida muhokamadan o’tgan va tasdiqlashga tavsiya etilgan.

KIRISH

Dasturning asosiy maqsadi - 13.00.02 – Talim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (Tasviriyy sanat) ixtisosligi bo'yicha talabgorlarning ilmiy va ilmiy pedagogik ishlarga bo'lgan qiziqishi, layoqati hamda qobiliyatlarini xolisona aniqlash va mezon asosida baholashdan iborat.

PEDAGOGIKA NAZARIYASI

O'qituvchilik kasbining jamiyatda tutgan urni. Pedagogikaning nazariy asoslari. Umumiy pedagogik jarayonning nazariy asoslari. Didaktika (ta'lim nazariyasi): ta'lim jarayoni, qonuniyatlari, tamoyillari, mazmuni, ta'lim metodlari va vositalari, ta'limni tashkil etish shakllari, ta'lim olganlikni tashxis etish. Tarbiya nazariyasi: tarbiya jarayoni, konuniyatlari, tamoyillari, tarbiyaning umumiy metodlari, tarbiya turlari: maqsadi va vazifalari, mazmuni va mohiyati, shakl, metod va vositalari. Ta'lim muassasasini boshqarish: O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida» gi Qonuni, ta'lim sohasida davlat siyosatining asosiy tamoyillari, ta'lim tizimi va turlari, ta'lim muassasasi menejmenti, ta'limni boshqarish tamoyillari, ta'limning ichki boshqaruvi. Korrektiv pedagogika asoslari: korrektiv pedagogikaning shakllanishi va rivojlanishi, korrektiv pedagogikaning sohalari.

Ta'lim nazariyasi (didaktika) pedagogikaning tarkibiy qismi sifatida. Didaktikaning maqsad va vazifalari.

Tarbiya jarayonining mohiyati va ahamiyati. Tarbiya jarayonining tizimi va tuzilishi xamda uning qonuniyatlari. Tarbiya jarayoni mazmuni. Tarbiya tamoyillari.

Jamoa tushunchasi. Bolalar jamoasining shakllantirishning mohiyati va tashkiliy asoslari. Bolalar jamoasining rivojlanish darajasi va bosqichlari. Bolalar jamoasi rivojining asosiy shart-sharoitlari.

Mustaqil fikrlash, ilmiy dunyoqarash va milliy goyani shakllantirish uquv-tarbiya jarayonining tarkibiy qismlari. Aqliy tarbiya. Aqliy tarbiyaning maqsadi va mazmuni. Bilim, kunicma va malakalarni shakllantirish - aqliy tarbiyaning asosi.

Axborot vositalari, davlat boshqaruvi organlari va boshqa davlat va nodavlat muassasalarida keng qamrovli kompleks muammolarni o'z ichiga oladi. Ta'lim yo'nalishiga asosida mutaqassis vazifasi - fanlarning zamonaviy, pedagogik texnologiyalardan foydalanadi, o'quv-tarbiya jarayonining mustahkamligiga ta'sir ko'rsatadi, o'quvchilarning qiziqishlarini ta'minlaydi. O'quvchilar ta'limning zamonaviy usullarini, ta'limning innovatsion usullarini, ta'limning zamonaviy usullarini o'rganadilar.

13.00.02 - Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (Tasviriyy sanat) 2 ta ta'lim fanlari bo'yicha fan dasturiga asoslangan holda doktoranturaga kiruvchilar

uchun: “Tasviriy sanat va muxandislik grafikasini o‘qitish metodikasi”, “Rangtasvir”, fanlari bo'yicha imtihon savollari o'z ichiga oladi

Tasviriy sanat va muxandislik grafikasini o‘qitish metodikasi fani bo'yicha:

Chet ellarda tasviriy san'atni o‘qitish tarixidan. Rossiyada qalamtasvir o‘qitish metodlari. Tasviriy san'atni o‘qitish metodikasi fanini o‘qitishga doir eng qadimgi va o‘rta asr boshlaridagi (Misr, Yunon, qadimgi Rim) ma'lumotlar va ularning xarakteri. Tasviriy san'at o‘qitish metodikasini rivojlantirishda Uyg‘onish davri rassomlarining xizmatlari (Ch.Chennini, Alberti, Leonardo da Vinchi. A. Dyurer). XVIII-XIX asrlarda G‘arbiy Evropada rasm chizishni o‘rgatish metodikasiga bo‘lgan turli qarashlar.

XVIII-XIX asrlarda Rossiyaning pedagogika o‘quv yurtlarida tasviriy san'at fanining o‘rni. I.D. Preysler. A.G.Sapojnikov. G.A.Gipiuslarning tasviriy san'at o‘qitish metodlarining rivojlanishida P.P.Chistyakov, D.N.Kardovskiylarning pedagogik qarashlari va tasviriy san'at o‘qitish uslublari.

O‘rta Osiyo va O‘zbekistonda tasviriy san'atning o‘qitilishi.

Sharq miniatyura maktablarining rivojlanishi va ularning uslublari. O‘rta Osiyo, Eron, Misr miniatyurasi. Islom dini kirib kelgunga qadar O‘rta Osiyo tasviriy san'ati. Kitoblarga bezak ishlash maktabi (K.Behzod). Samarqand. Buxoro maktablari. O‘zbekistonda tasviriy san'atni o‘qitilishiga doir dastlabki ma'lumotlar. O‘zbekistonda XX asr boshlarida tasviriy san'atni o‘qitilishi. O‘zbekistonda tasviriy san'atni o‘qitilishining shakllanishi. Ikkinchi jahon urushi va undan keyingi birinchi o‘n yilliklarda tasviriy san'atni o‘qitilishi. XX asrning ikkinchi yarmida O‘zbekistonda tasviriy san'at o‘qituvchilarini tayyorlash. Tasviriy san'at o‘qituvchilarini o‘quv- metodik majmualar bilan ta'minlanishi.

Tasviriy san'at ta'limi konsepsiyasi. Umumiy o‘rta ta'lim maktablarida tasviriy san'at davlat ta'limi standarti. Oliy ta'lim davlat ta'lim standartlari. O‘quvchilarni o‘quv-metodik majmualari bilan ta'minlanishi. Mustaqillik yillarida tasviriy san'at o‘qitish metodikasidan olib borilgan tadqiqotlar.

Umumiy o‘rta ta'lim maktablarida tasviriy san'at ta'limining maqsad va vazifalari, mashg‘ulotlarining mazmuni.

Umumiy o‘rta ta'lim maktablarida tasviriy san'at darslarining maqsadi. Tasviriy san'at mashg‘ulotlarining ta'lim-tarbiyaviy vazifalari. Tasviriy san'atni maktabdagi boshqa o‘quv fanlari samaradorligini oshirishdagi ahamiyati. O‘quvchilarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish.

Umumiy o‘rta ta'lim maktablarida tasviriy san'at darslarining mazmuni. Tasviriy san'at davlat ta'lim standartlari bilan bog‘liqligi. Maktabda tasviriy san'at mashg‘ulotlarining turlari: borliqni idrok etish, naturaga qarab tasvirlash, kompozitsiya. san'atshunoslik asoslari. mavzu. Tasviriy san'at davlat ta'lim standarti (maktab, oliy ta'lim).

Umumiy o‘rta ta'lim maktablari, oliy o‘quv yurti davlat ta'lim standarti va uning mohiyati. Umumiy o‘rta ta'lim maktablari, oliy o‘quv yurtida tasviriy san'at

fanlaridan o'quvchi va talabalar bilimiga qo'yiladigan talablar. Davlat ta'lim standartini nazorat qilinishi. Davlat ta'lim standartida tasviriy san'atning mutaxassislik fanlari maqsad va vazifalarining belgilanishi. Tasviriy san'at fanidan davlat ta'lim standartini amaliyotga joriy etilishi.

Tasviriy san'atni o'qitishda didaktik prinsiplar.

Ta'lim sohasidagi islohatlar asosidagi mavjud prinsiplar (insonparvarlik, gumanizm, demokratizatsiya, integratsiya, differentsiatsiya va individualizatsiya). Didaktik prinsiplar va ularning tasviriy san'atni o'qitishdagi ahamiyati. Tasviriy san'atni o'qitishda didaktik prinsiplarning o'ziga xos xususiyatlari. Ta'lim va tarbiyaning birligi prinsipi. Ilmiylik prinsipi. Onglilik va faollik prinsipi. Ta'limni o'quvchilarning yoshi va kuchiga mosligi prinsipi. Muntazamlilik va ketma-ketlik prinsipi.

Tasviriy san'atni o'qitish metodikasidan topshiriqlar. Ularni nazorat qilish va baholash.

Maktab o'quvchilariga tasviriy san'atdan beriladigan topshiriqlarning shakllari. Sinfda va uyda bajariladigan topshiriqlarning o'ziga xos xususiyatlari. O'quvchilarning bilim va malakalarini nazorat qilish va baholashning mohiyati. O'quvchilar tasviriy faoliyatlarini nazorat qilish turlari. Joriy (baholash) nazorat. Oraliq (baholash) nazorat. Yakuniy (baholash) nazorat. O'quvchilarning bilim va malakalarini baholash mezonlari. (Og'zaki so'rov, mashq, tasviriy ijodiy mustaqil ish, yozma ish, test sinovlari, uy vazifalari).

Borliqni idrok etish, naturadan ishlangan rasmlar, naturaga qarab ishlangan haykallar, rangtasvir kompozitsiyasi, dekorativ kompozitsiya, haykaltaroshlik kompozitsiyasi, san'atshunoslik asoslari bo'yicha qalamtasvir, rangtasvir, kompozitsiya, haykaltaroshlik va san'at tarixi fanlari bo'yicha o'quvchilarning bilim va malakalarini baholash mezonlarini o'ziga xos xususiyatlari.

Tasviriy san'atni o'qitish metodikasi o'qituvchisi tashkilotchi, metodist va ijodkor.

O'qituvchilik kasbi va uning jamiyatdagi o'rni. O'qituvchining ma'naviy va kasbiy sifatleri. Mahoratli o'qituvchi - dars tashkilotchisi, ilhomlashtiruvchisi. Oliy ta'limda tasviriy san'at o'qituvchisi - san'atshunos - rassom - pedagog, uning funksional vazifalari. Mahoratli o'qituvchi va zamonaviy innovatsion va interfaol usullari, axborot va pedagogik texnologiyalar. O'qituvchi faoliyatida rassom-pedagog va xalq ustalarining ilg'or tajribalarini o'rganish. O'qituvchi faoliyati psixologik sifatlarining ahamiyati.

Tasviriy san'atni o'qitish metodikasi mashg'ulotlarining zamonaviy ta'limi.

O'qituvchi faoliyatida zamonaviy axborot va pedagogik texnologiyalarning y'ni. Tasviriy san'at darslarida zamonaviy axborot va pedagogik texnologiyalaridan foydalanish. Innovatsion va interfaol usullar. Modulli o'qitish. Masofali o'qitish. O'qituvchining tasviriy ijodiy ishlari.

Tabaqalashtirib o'qitishning mohiyati va uning turlari. Tabaqalashtirib o'qitishning ijobiy va salbiy jihatlari. Darajali va ixtisoslashtirilgan tabaqalashtirish. Individual ta'lim. Guruhli ta'lim. Tabaqalashtirilgan sinflar ta'limi. Tabaqalashtirilgan maktablar ta'limi. Tabaqalashtirilgan ta'limda tashxis o'tkazish. O'quvchilar bilan tabaqalashtirilgan holda dars o'tish metodikasi.

rangtasvir fani boyicha:

«Rangtasvir» o'quv fanini o'zlashtirish jarayonida amalga oshiriladigan masalalar doirasida;

- O'quvchilarni tasviriy faoliyatga o'rgatishning mazmuni va xususiyatlari;
 - tasviriy san'atga o'rgatishning didaktik tamoyillari;
- tasviriy san'atga o'qitish jarayonida rangtasvirning ishlash mazmuni, metod va texnologiyalari;
- milliy va jahon tasviriy san'at tarixiga oid ma'lumotni bilish, tasviriy san'at tarixi va nazariyasi, rangtasvir qonuniyatlari, portret xarakteristikasini o'rganish.
- rangtasvirni o'qitish jarayonida o'quvchilarni estetik jihatdan tarbiyalash;
- oddiy geometrik shakllardan boshlab insonning qomatini rangtasvirda tasvirlay olishgacha;
- tasviriy san'at asarlarini yaratishda ranglavhaning ahamiyati
- mashg'ulotlarini tashkil etishda san'at asarlarini tahlil eta olish;
- maxsus maktabgacha ta'lim muassasalarida tasviriy faoliyatga o'rgatish
- maktablarda tasviriy san'at darslari uchun ishlanmalar tayyorlashni;
- yaxshi o'zlashtiruvchi va iqtidorli o'quvchilar bilan individual darslar olib borish;
- tasviriy faoliyatga o'rgatish jarayonini taxlil etish;
 - o'quvchilar ijodiy ishlarini baholay olish to'g'risida malakalariga ega bo'lishi kerak.

ADABIYOTLAR

1.Ўзбекистон Республикас Президенти Ш. Мирзиёевнинг 2016 йилнинг асосий яқунлари ва 2017 йилда Ўзбекистоннинг ижтимоий-иқтисодий ривожлантиришнинг энг муҳим устивор йўналтиришларига бағишланган Вазирлар Маҳкамасининг мажлисидаги маърузаси.

2.Мирзиёев Ш.М. Танқидий таҳлил, қатъий тартиб – интизом ва шахсий жавобгарлик – ҳар бир раҳбар фаолиятининг кундалик қоидаси бўлиши керак. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2016 йил яқунлари ва 2017 йил истиқболларига бағишланган мажлисидаги Ўзбекистон республикаси президентининг нутқи. // Халқ сўзи газетаси. 2017 йил 16 январ, № 11.

3.Мирзиёев Ш.М. Буюк келажагимизни мард ва олийжаноб халқимиз билан бирга қурамиз. “Ўзбекистон” 2017.

4.Мирзиёев Ш.М. Эркин ва фаровон, демократик Ўзбекистон давлатини биргаликда барпо этамиз. “Ўзбекистон” 2016.

5.Ўзбекистон Президенти Шавкат Мирзиёев 2017—2021 йилларда Ўзбекистонни ривожлантиришнинг бешта устувор йўналиши бўйича ҳаракат стратегияси. 7 январ 2017 йил.

6.Мирзиёев Ш.М. Қонун устуворлиги ва инсон манфаатларини таъминлаш юрт тараққиёти ва Халқ фаровонлиги гарови.-Тошкент, Ўзбекистон, 2017.-486

9.Кадырова М.С. Педагогические основы использования народных традиций в трудовом воспитании учащихся начальных классах.: Автореф. дис. ... канд. пед. наук. – Т.: ТГПУ, 2008. – 25 с.

10.Abdirasilov S. “Tasviriy san’at va uni o’qitish metodikasi”. O’quv qo’llanma. Toshkent. Ilm-Ziyo, 2011.

11.Abdirasilov S., Tolipov N. Tasviriy san’at o’qitish metodikasi. (amaliy mashg’ulotlar). O’quv qo’llanma. - T.: «Aloqachi», 2007.

12.Abdirasilov S. Tasviriy san’at o’qitish metodikasi. Darslik. — T.: «Fan va texnologiya nashriyoti», 2012.